

---

## Ayoli e'zozlangan yurt

✂Rishton tumani Yoyilma MFYda Oila va xotin-qizlar bo'limi va mahalla fuqarolar yig'inlari xotin-qizlar faollari, keng jamoatchilik ishtirokida "Ayoli e'zozlangan yurt" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda turli sohalarda mehnat qilib, hozirda nafaqa yoshidagi faol xotin-kizlar taklif etilib, ularga alohida ehtirom ko'rsatildi. Ishtirokchilar mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasiga kiritilgan oila va ta'limni yanada mustahkamlashga doir yangiliklar xususida o'zaro fikr almashib, joriy yilning 30 aprel kuni bo'lib o'tadigan Referendumda faol ishtirok etishlarini aytib o'tdilar.

2023-03-31 15:47:31